

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Rektor Sh. S. Saiddinov

28.08



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

018 yil 12

Ro'yxatga olingan №BD-5111200.3.16

2018 yil "21" 11

YOZMA ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI  
FAN DASTURI

Bilim sohasi:  
Ta'lim sohasi:  
Ta'lim yo'nalishi:

100000 – Gumanitar soha  
110000 – Pedagogika  
5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent-2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil 21.11. dagi "5" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27.12. dagi "1003" - sonli buyrug'ining 4 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Azimova I. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mavlonova K. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Jiyanova N. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Xolmonova Z. Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Tilshunoslik nazariyasi, leksikografiya va dialektologiya kafedrasida professori, f.f.d.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 28.08 dagi 1-sonli bayonnomasi).

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Bugungi kunda ona tili ta'limi oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikr olaydigan, o'z g'alar fikrini angelaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirish, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini DTS darajasida shakllantirishda Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanining alohida o'rni bor.

Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fani bo'lajak o'qituvchilarga yozma nutqni rivojlantirishning asosiy vositalaridan bo'lgan yozma ishlarning mazmuni va xususiyatlari, turlari, ularni tashkil etish metodlari, yozma ishlarning o'zbek tili ta'limidagi o'rni, DTSda yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy talablar haqida atroflicha bilim berish, ularda fanga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Mazkur fan umumkasbiy fan hisoblanadi va uni o'qitishda Hozirgi o'zbek adabiy tili, O'zbek tilini o'qitish metodikasi kabi fanlardan egallangan bilimlarga tayaniladi.

Yozma ish va topshiriqlarning har qanday ko'rinishi mumtoz asarlar mohiyatini o'zlashtirishda, milliy qadriyatlarini anglashda muhimdir. Ayniqsa, adabiy mavzudagi insholarning asosiy maqsadi o'timish va bugunning manfaatlarini umumlashtirishga qaratilgan. Yozma ishlarga e'tibor faqatgina milliy pedagogik tajribada emas, xorij ta'limi va baholash tizimida ham kuzatiladi. Masalan, keng yoyilgan til o'qitish dasturlari hisoblangan IELTS, TOEFL tizimlarida 60 daqiqalik umumiy mavzuda esse yoki insho yozish, 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish talablari keltirilgan.

Har tomonlama bilimli, malakali, muayyan tajribaga ega bo'lgan, nutq madaniyati talablarini to'liq o'zlashtirgan, an'anaviy milliy pedagogika hamda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasidan, eng so'nggi zamonaviy yutuqlaridan boxabar, og'zaki va yozma nutqi ravon mutaxassis-kadrlarni tayyorlashda mazkur o'quv fani dolzarb ahamiyat kasb etib, uning oliy kasbiy ta'limdagi o'rnini ko'rsatadi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanining asosiy maqsadi talabalarga yozma ishlarni tashkil etishning mazmuni, tamoyillari, shakli, vositalari haqida ma'lumot berish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi o'quv fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga oid umumiy va xususiy yondashuvlar hamda kasbiy kompetensiyani shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- yozma ish turlari, yozma ishlarni tashkil etishning mazmuni, tamoyillari, metodlari, shakli hamda vositalari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;
- yozma ishlarni tashkil etish metodlarini to'g'ri tanlash, yozma ishlar tahlili va uni o'tkazishdagi muammolar yechimlarini topa olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'quvchilar yozma nutqida uchrashi mumkin bo'lgan xatolarni prognoz qila va ularning oldini ola bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### 1-mavzu. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining predmeti. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining maqsadi. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining vazifalari. Milliy pedagogikadagi asosiy tamoyillardan biri yozma nutqni shakllantirish masalasi ekanligi.

#### 2-mavzu. DTSda yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy talablar.

DTSda yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy talablar. DTS talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni. Fikrni yozma shaklda bayon etishga oid talablar.

#### 3-mavzu. Yozma ishlar o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita sifatida

Yozma ishlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi vosita. Yozma ishlarni tanlash tamoyillari. Og'zaki va yozma nutqni shakllantiruvchi yozma ishlar.

#### 4-mavzu. Yozma ishlarning turlari

Yozma ish va uning turlari. Yozma ish turlari: diktant, bayon, inshoning o'ziga xos jihatlari. Sodda va murakkab tarkibli matnlar

#### 5-mavzu. Diktant va uning turlari. Diktantga qo'yiladigan talablar

Ona tili ta'limida diktantning o'рни. Ta'limiy diktantlar: ta'kidiy, izohli, erkin, saylanma, ijodiy, lug'at v.h.k. Nazorat diktantlari. Diktant o'tkazish texnologiyasi. Nazorat diktantlarini baholash mezonlari.

#### 6-mavzu. Bayon va uning turlari

Bayon haqida umumiy ma'lumot. Bayon va uning turlari: ta'limiy va nazorat. Ijodiy, tavsifiy, muhokama bayonning xususiyatlari. Bayon yozish usullari. Bayonni baholash mezonlari.

#### 7-mavzu. Insho va uning turlari

Insho haqida nazariy ma'lumot. Inshoning belgilangan maqsadga ko'ra turlari: ta'limiy va sinov insholari. Insholarning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari: adabiy mavzudagi insholar va erkin mavzudagi insholar. Insho yozishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari. Insho o'tkazish texnologiyasi.

#### 8-mavzu. Yozma ishlarda xatolar ustida ishlash metodikasi

Yozma ishlarni tashkil etishda uchraydigan asosiy xatolar. Imloviy xatolar va uni bartaraf etish yo'llari. Ishoraviy xatolar ustida ishlash. Uslubiy xatolar ustida ishlash. Mantiqiy xatolar va uni bartaraf etish usullari.

#### 9-mavzu. Yozma ishlar tahlilida qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar

Yozma ishlar tahlilida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati. Bugungi kundagi ta'limjarayonida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning umumiy tavsifi. Xatolar ustida ishlashda interfaol metodlardan foydalanish.

#### 10-mavzu. Yozma ish darslarini loyihalashtirish

Yozma ish darslarini loyihalash bosqichlari. Yozma ish darslarini loyihalashda AKT dan foydalanish. Insho, diktant va bayonni loyihalash bosqichlari. Yozma ish tahlili darslarini loyihalashtirish.

### IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ta'lim bosqichlari DTS va dasturlarida yozma ishlarga qo'yiladigan talablar tahlili.
2. Yozma ishlarni tashkil etish.
3. Diktant o'tkazish metodikasi.
4. Bayon o'tkazish metodikasi.
5. Insho o'tkazish metodikasi.
6. Punktatsion xatolar ustida ishlash metodikasi.
7. Imlo xatolari ustida ishlash.
8. Dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari.
9. Uslubiy xatolar ustida ishlash metodikasi.
10. Yozma ishlarni baholash mezonlarini belgilash asoslari.
11. Yozma ishlarni tilshunoslik bo'limlari bilan bog'lab o'rgatish metodikasi
12. Xatolar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademguruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fani bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.

2. Yozma ishlar – o‘quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita.
3. Yozma ish turlari bo‘yicha taqdimot tayyorlash.
4. Diktant va uning turlari bo‘yicha material to‘plash.
5. Bayon o‘tkazish bo‘yicha matn to‘plash.
6. Insho nazariyasi haqida.
7. Imlo xatolari ustida ishlash bo‘yicha keyslar bankini yaratish.
8. Yozma ishlarni baholash mezonlari bo‘yicha tavsiya tayyorlash.
9. Yozma ishlarni tilshunoslik bo‘limlari bilan bog‘lab o‘rgatish metodikasi.
10. Xatolar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan portfolio, dars ishlanmasi, ilmiy maqola, taqdimot, grafik organayzer, baholash mezonlari ko‘rsatkichlari va diktant, bayon uchun matn tayyorlash tavsiya etiladi.

#### VI. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

##### Asosiy adabiyotlar

1. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
2. O.Oxunjonova. Yozma ishlarni o‘tkazish metodikasi. – Toshkent, 2014.
3. P.A.Йўлдошев, M.M.Рихсиева. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. –Тошкент, 2018.
4. M.Saparniyazova. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi. Ma’ruzalar matni. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2016.

##### Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон.
6. M.Saparniyazova. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi. Elektron o‘quv uslubiy modul majmua. Toshkent: ToshDO‘TAU, 2016.
7. Mavlonova K. O‘quvchining yozma nutqi qanday shakllanadi? // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. – № 11. – B. 24-25.
8. Mavlonova K. Og‘zaki va yozma nutq boyligiga qanday erishiladi? // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2016. – № 9. – B. 24-26.
9. Мавлонова К. Ўқувчи иншони қандай ёзмокда? // Umumta’lim fanlari metodikasi. –Тошкент, 2017 йил, №4. –Б. 6-8.
10. Klarakhon M. Mavlonova. Approaches and Principles Concerning Studying Properties of Artistic Text Language at Native Language Lessons // Eastern European Scientific journal. – Germany, 2018. Vol. 3. – P. 155-162.

##### Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.gov.uz/> Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU sayti.
2. <http://www.pedagog.uz/> Pedagogika muassasalari portali.
3. [www.insho.uz](http://www.insho.uz)
4. [www.auris-verlag.de](http://www.auris-verlag.de)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)